



ZAMONAVIY JAMIYATDA YOSHLAR HUQUQBUZARLIGI: FALSAFIY TAHLIL VA NAZARIY-METODOLOGIK PARADIGMALAR

Rahmonov Soxibjon Toxirjonovich

IIV huzuridagi Jazoni ijro etish departamenti

Ikkinchi mintaqaviy muvofiqlashtirish markazi Tezkor faoliyatni muvofiqlashtirish

guruhi o'ta muhim ishlar bo'yicha tezkor vakili,

Andijon davlat pedagogika instituti mustaqil izlanuvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy jamiyatda yoshlarda huquqbuzarlikning falsafiy mohiyati hamda ijtimoiy-axloqiy omillari tahlil qilinadi. Tadqiqotda yoshlar og'ishi fenomeni sotsiologik, aksiologik va antropologik yondashuvlar orqali izohlanib, uning ijtimoiy ong va madaniy qadriyatlarga ta'siri ko'rsatiladi. Shuningdek, huquqbuzarlikning oldini olishda innovatsion nazariy-metodologik paradigmalarining roli asoslab beriladi

Kalit so'zlar: yoshlik, huquqbuzarlik, axloq, falsafa, ijtimoiy nazariya, metodologiya

Аннотация: В статье исследуется философская сущность и социально-нравственные факторы молодежной преступности в условиях современного общества. Автор анализирует феномен девиантного поведения молодежи через социологический, аксиологический и антропологический подходы, раскрывая его влияние на общественное сознание и культурные ценности. Особое внимание уделяется роли инновационных теоретико-методологических парадигм в профилактике правонарушений среди молодежи.

Ключевые слова: молодежь, правонарушения, мораль, философия, социальная теория, методология

Annotation: This article examines the philosophical essence and socio-ethical factors of youth delinquency in contemporary society. The phenomenon of deviant behavior among young people is analyzed through sociological, axiological, and anthropological approaches, revealing its impact on social consciousness and cultural values. The study also substantiates the significance of innovative theoretical-methodological paradigms in preventing youth offenses.

Keywords: youth, delinquency, morality, philosophy, social theory, methodology.

Bugungi kunda yoshlar jamiyatni harakatga keltiruvchi asosiy kuch bo'lib, ular nafaqat hozirgi zamonning, balki kelajakning ijtimoiy, madaniy va siyosiy rivojlanishida ham markaziy rol o'ynaydi. Shu munosabat bilan yoshlar faol ijtimoiy qatlam bo'lib, ularning ijtimoiy tafakkurda tutgan o'rni har doim ilmiy tadqiqot obyekti hisoblanadi. Yoshlarning ijtimoiy guruh sifatidagi identifikatsiyasi – bu ularning ma'lum bir guruh yoki jamoa bilan bog'lash jarayoni bo'lib, u shaxsning xulq-atvori, qaror qabul qilish mexanizmlari va ijtimoiy o'zaro munosabatlarida o'z aksini topadi. Falsafiy ma'noda bu jarayon shaxsni



o‘zini anglash, jamiyatda o‘zo‘rnini toppish va milliy qadriyatlarga sodiqlik bilan uzviy bog‘liqdir.

Biroq, shaxs va jamiyat o‘rtasidagi murakkab munosabatlar doimiy ravishda ijtimoiy normadan chetga chiqadigan – axloqiy chekinish kabi hodisalarni ham yuzaga keltiradi. Devian xulq-atvorning falsafiy mohiyati shundan iboratki, u jamiyat tomonidan belgilangan norma va me‘yorlardan chetga chiqish orqali shaxsning erkinligi, ijtimoiy chegaralari va axloqiy me‘yorlarga munosabati haqidagi masalalarni ko‘taradi. Bu xulq-atvorning asosiy belgilari – ijtimoiy-iqtisodiy, axloqiy, ma‘naviy deviantlik – shaxsning o‘z-o‘zini anglashi, jamiyat bilan muloqoti, ijtimoiy mexanizmlari bilan munosabati har doim ijtimoiy va falsafiy tadqiqni talab etadi.

Shuningdek, shaxsning ijtimoiylashuvi va ijtimoiy adaptatsiyasi yoshlarning rivojlanish jarayonidagi eng muhim tarkibiy qism hisoblanadi. Ijtimoiylashuv shaxsning jamiyatning madaniy, axloqiy va normative qadriyatlarini qabul qilish jarayonini, ijtimoiy adaptatsiya esa shaxsning o‘zini jamiyatga moslashishi va ijtimoiy sharoitlarga muvofiqligini ifodalaydi. Mazkur jarayonda yoshlar turli ijtimoiy, iqtisodiy hamda axloqiy muammolar bilan ro‘baro‘ keladi. Bu ularning inson sifatidagi kamolotida asosiy rolni o‘ynaydi. Shu bois, yoshlarning ijtimoiy guruh identifikatsiyasi, devian xulq-atvor, shaxsning ijtimoiylashuvi va adaptatsiyasi masalalari bir-biri bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, zamonaviy ijtimoiy va falsafiy tadqiqotlarda chuqur o‘rganilmoqda.

Zamonaviy O‘zbekiston jamiyatining barcha hayotiy sohalarida kechayotgan tub islohotlar jarayonida jinoyatchilik sezilarli darajada oshdi, og‘ishgan xulq-atvorning boshqa shakllari ham keng tarqaldi. Bu holat mazkur ijtimoiy hodisalarni umumlashtirilgan va tizimlashtirilgan o‘zaro bog‘liqlikda har tomonlama ilmiy o‘rganish zaruratini keltirib chiqardi.

Bu masalani ilmiy asosga qo‘yish Yangi O‘zbekiston uchun bir qator sabablarga ko‘ra alohida dolzarblik kasb etadi:

birinchidan, bozor iqtisodiyoti turining shakllanishi ijtimoiy tuzilmaning dinamik o‘zgarishlari va hayotning ma‘lum darajada marginallashuvi bilan kechmoqda, bu esa og‘ishgan xulq-atvorning umumiy o‘sish tendensiyasini kuchaytirmoqda;



ikkinchidan, davlat hokimiyatining shakllangan mexanizmlarida jinoyatchilik va ijtimoiy-salbiy xususiyatga ega bo'lgan deviant xulq-atvor turlarining tarqalishi uchun ilmiy xulosalarning yetarli emasligi;

uchinchidan, ijtimoiy-salbiy og'ishgan xulq-atvor turlarining kengayishi mamlakatdagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-huquqiy vaziyatni yanada og'irlashtirmoqda, ommaviy ongda salbiy aks etmoqda va jamiyat taraqqiyotiga jiddiy to'sqinlik qiluvchi omil sifatida namoyon bo'lmoqda.

Bunday sharoitda huquqbuzarlik yoshlarda ommaviy tus olib, ko'pincha umumqabul qilingan xulq-atvor uslubi sifatida ko'rilmogda. Shu jihatdan ta'kidlash joizki, hayotiy tajribaga ega bo'lmagan yosh avlod o'zgarib borayotgan sharoitlarga moslashishda qiyinroq kechadi. Vaziyatni yanada og'irlashtiradigan holat shundaki, shaxs shakllanishiga va uning jamiyat hayotiga to'laqonli kirib borishiga ko'maklashishi lozim bo'lgan ijtimoiy institutlar bunga qarshi doimiy kurashishi yoki umuman faoliyatini shunga moslashishni talab etilmogda. Voyagayetmaganlar orasidagi ijtimoiy anomaliyalarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, so'nggi paytlarda boshqa ijtimoiy omillar qatorida fon hodisalari sifatida salbiy tendensiyalar kuchayib, yoshlar jinoyatchiligining ortishiga xizmat qilmogda. Gap, xususan, ichkilikbozlik, g'yohvandlik, o'g'rilik va jinsiy buzuqlikning keskin kuchayishi bilan bog'liq kriminogen ahamiyat haqida bormogda¹.

Ko'plab tadqiqotlar voyaga yetmaganlar jinoyatchiligining keskin "yosharganini", jumladan, hatto javobgarlikka tortish yoshiga yetmaganlar orasida ham kengayib borayotganini ko'rsatmogda². Shuningdek, quyidagi faktni ham ta'kidlash lozim: yoshlarning katta qismi huquqbuzarliklarga ijtimoiy tarmoqlardagi tartibsizliklar, ma'naviy me'yor va qadriyatlarning noaniqligi, ba'zan esa sarmoyadorlarning ochiqchasiga noto'g'ri targ'iboti orqali undalmogda.

Bizning fikrimizcha, jinoyatlarda ishtirok etayotgan o'smirlar sonining ortishi davlat tomonidan voyaga yetmagan jinoyatchilarga nisbatan qo'llanilayotgan choralar ta'sirchanligi bilan ham izohlanadi: "insonparvar" hukmlar voyaga yetmagan huquqbuzarlarni qayta moslashtirish muammolariga yetarlicha e'tibor berilmagan sharoitda

¹Саидов А. Хукукий маданият назарияси. 2-томли. Т.2. Т., Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998 й. –Б.447

²Рахманов А.М. Ўзбекистонда демократик хукукий давлат тизимини вужудга келтириш жараёнида гражданлар виждон эркинлигининг таъминланиши: дис. ... фалсафа фанлари номзоди; Мирзо Улуғбек номли ТошДУ. Т., 1996 й. – Б.143.



na umumiy, na maxsus ogohlantirish funksiyasini bajarmay qolayotgan holatlari ham ko'pla buchramoqda.

Bularning barchasi yoshlarning huquqiy ongini shakllantirish va deviant xulq-atvor muammolarini o'rganish zaruriyati va muhimligini ko'rsatadi. Jinoyatchilikdagi o'zgarishlarga, shubhasiz, o'smirlarning ma'muriy huquqbuzarliklari holati, tavsifi, tasnifi, ularning shakli hamda ko'rinishi ham ahamiyatlidir. Zero, katta yoshdagilar huquqbuzarligi bu yoshlarga ham albatta o'z ta'sirini o'tkazadi.

Shuningdek, o'smirlar orasidagi xarakter aktsentuatsiyalarini kriminologik o'rganish va baholash ham muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aktsentuatsiyaga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarda shaxsning noqulay xususiyatlari kuchliroq namoyon bo'lib, bu deviant va delinkvent xulq-atvor xavfini oshiradi. Ular ijtimoiy muhitning salbiy ta'sirlariga, xususan, oilaviy nosog'lomlikka, maktabdagi tarbiyaviy jarayonning buzilishiga, norasmiy tengdoshlar guruhlarining salbiy ta'siriga nisbatan ko'proq sezgir bo'ladilar. Shubhasizki, aktsentuatsiyalarga ega bo'lgan voyaga yetmaganlarga deviant xulq-atvorning oldini olishni tashkil etish va amalga oshirish jarayonida alohida e'tibor qaratish lozim³.

O'tish davri yoshi — bu o'smir ijtimoiy ahamiyatga ega xatti-harakatlarni amalga oshira boshlaydigan, uning bo'sh vaqti ota-onalar nazoratidan chiqadigan, u o'zini doimiy ravishda namoyon etish ehtiyojini his qiladigan davrdir. Tijoratlashgan va deideologiyalashgan zamonda bu ehtiyoj ko'pincha “moddiy manfaatlar”ga qaratiladi. Shu munosabat bilan muammoning muhim jihatlaridan biri — yoshlarning (eng avvalo, manfaatparast) istaklari bilan ularni qondirish darajasi o'rtasidagi qarama-qarshiliklardir. Zero, tobora ko'proq voyaga yetmaganlar o'z moddiy muammolarini jinoyatchilik yo'li bilan hal etishga urinmoqda.

Jinoyatchilikning miqdoriy o'sishi muqarrar ravishda jamiyatning o'zida sifat o'zgarishlariga olib keladi. “Jinoyatchilikka chalinish” jarayoni qonunlarga itoatkor fuqarolar orasida boshlanadi, ijtimoiy ongning barcha shakllari, eng avvalo, yoshlarning huquqiy ongida deformatsiya yuz beradi⁴.

³ Антонян Ю.М., Юстицкий В.В. Несовершеннолетние преступники с акцентуациями характера: Учебное пособие. - М.: МГУ, 2003. С.120.

⁴ Гильманов И.М. Криминологическая характеристика групповых преступлений с участием несовершеннолетних. - Казань: Казан, гос. унт.- 1993.С.14.// Гончаров Н.В., Сапунов А.Г. Ценностные ориентации молодежи в сфере



Jinoyatchilikning oldini olish bir qator ijtimoiy-iqtisodiy, ma'muriy-huquqiy, tashkiliy va mafkuraviy vazifalarni hal etishni nazarda tutadi, ular orasida eng muhim o'rinlardan birini jinoyatchilik va yoshlarning ijtimoiy-salbiy xulq-atvorini erta profilaktika qilish vazifasi egallaydi. Bolalar va o'smirlarning asotsial xulq-atvoridagi og'ishlar turlicha shakllarda namoyon bo'lishi mumkin: daydilik, ichkilikbozlik, giyohvandlik, axloqsiz xatti-harakatlar, o'qish va mehnatdan bo'yin tovlash kabi huquqbuzarliklarda. Biroq, ularning barchasi oxir-oqibat ijtimoiy moslashuvning buzilishi va desotsializatsiya boshlanganidan darak beradi, bu esa shaxsning jinoyatchilikka moyilligini shakllantiruvchi zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Саидов А. Ҳуқуқий маданият назарияси. 2-томли. Т.2. Т., Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 1998 й. –Б.447
2. Раҳманов А.М. Ўзбекистонда демократик ҳуқуқий давлат тизимини вужудга келтириш жараёнида гражданлар виждон эркинлигининг таъминланиши: дис. ... фалсафа фанлари номзоди; Мирзо Улуғбек номли ТошДУ. Т., 1996 й. – Б.143.
3. Антонян Ю.М., Юстицкий В.В. Несовершеннолетние преступники с акцентуациями характера: Учебное пособие. - М.: МГУ, 2003. С.120.
4. Гильманов И.М. Криминологическая характеристика групповых преступлений с участием несовершеннолетних. - Казань: Казан, гос. унт.- 1993.С.14.
5. Гончаров Н.В., Сапрунов А.Г. Ценностные ориентации молодежи в сфере правосознания в посттоталитарном обществе. Краснодар. 2007.-С.5.
6. Моленда О. Влияние ценностных ориентации на асоциальное поведение подростков: Автореф. дис. ...канд. социол. наук. - М., 2002. С.23.
7. Пристанская О.И. Правосознание лиц, совершающих преступления в несовершеннолетнем и молодом возрасте // Криминологические проблемы правосознания и общественного мнения о преступности: Сб. науч. трудов. - М.-Прага, 2006. - С.190-199.

правосознания в посттоталитарном обществе. Краснодар. 2007.-С.5.// Моленда О. Влияние ценностных ориентации на асоциальное поведение подростков: Автореф. дис. ...канд. социол. наук. - М., 2002. С.23 //Пристанская О.И. Правосознание лиц, совершающих преступления в несовершеннолетнем и молодом возрасте // Криминологические проблемы правосознания и общественного мнения о преступности: Сб. науч. трудов. - М.-Прага, 2006. - С.190-199.// Чикишев А.М. Девиантное поведение молодежи как одно из проявлений ее правосознания: Автореф. дис. ... канд. филос. наук. Иркутск, 1996. С.20